


## Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasi

### 1. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar holati.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida olib borilgan islohotlar natijasida, 2017 yil 1 noyabr holatiga, viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 22314 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 14,8 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ushbu korxonalarining asosiy qismi, 7056 tasi Samarqand shahriga, 1975 tasi Urgut, 1768 tasi Pastdarg'om, 1491 tasi Samarqand, 1183 tasi Payariq, 1117 tasi Ishtixon, 1036 tasi Kattaqo'rg'on, 853 tasi Bulung'ur, 875 tasi Narpay, 863 tasi Tayloq, 854 tasi Oqdaryo, 733 tasi Jomboy, 659 tasi Nurobod, 583 tasi Paxtachi, 538 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 730 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### 2. Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar faolligi.

Shu bilan birga, 2017 yil 1 noyabr holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 21084 tani tashkil etildi.

Mazkur ko'rsatkich viloyat bo'yicha asosiy qismi, 6725 tasi Samarqand shahriga, 1935 tasi Urgut, 1615 tasi Pastdarg'om, 1366 tasi Samarqand, 1096 tasi Payariq, 1080 tasi Ishtixon, 967 tasi Kattaqo'rg'on, 783 tasi Bulung'ur, 847 tasi Tayloq, 841 tasi Narpay, 807 tasi Oqdaryo, 668 tasi Jomboy, 583 tasi Nurobod, 549 tasi Paxtachi, 516 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 706 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.


## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida 2017 yil 1 noyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 21084 ta yuridik shaxsning (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) asosiy qismi 4752 tasi savdo, 3705 tasi sanoat, 1658 tasi qurilish, 1421 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1210 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 687 tasi tashish va saqlash, 459 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 390 tasi axborot va aloqa hamda 6802 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda*



**3. Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni rivojlantirish**

2017 yil 1noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 276 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 32 taga yoki 13,1 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 215 tasi qo'shma korxonalar, 61 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Ro'yxatga olingan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi 190 tasi sanoatda, 43 tasi savdo, 14 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5 tasi tashish va saqlashda, 3 tasi qurilishda va 17 boshqa turdagi sohalariga to'g'ri keladi.

### 2017 yil 1 noyabr holatiga Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni

